



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGI DIREKTORINING
B U Y R U G‘ I**

2024-yil 20- avgust

329-son

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi
PF–100-son Farmoni ijrosini tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 10-iyuldagi PF–100-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 10-iyuldagi PF–100-son Farmoni (keyingi o‘rinlarda– Farmon) **rahbarlik, ijro va nazorat uchun qabul qilinsin.**

2. Farmonga muvofiq:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab, moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, **vazirlik va idoralar**, ustav fondida (ustav kapitalida) **davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yirik tashkilotlarda** ularning birinchi rahbarlari boshchiligidagi kollegial asosda **“Xavflarni boshqarish” qo‘mitalari tuzilishi**, bunda, ushbu tashkilotlarning ichki audit xizmatlari qo‘mitalarning ishchi organi hisoblanishi;

b) **ichki audit xizmatlari** vazirlik va idoralar tizimidagi **budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa** hamda **tashkilotlarda** moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha o‘tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarni **monitoring qilib borishi**;

d) Davlat budjetining ijrosi ustidan moliyaviy nazoratni yanada kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining (2-ilova) 21-bandida, Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan **davlat budjetiga dividendlarni hisoblash hamda undirish** masalalarini tartibga solish belgilanganligi, bunda, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi asosiy ijrochi sifatida qayd etilganligi, mazkur bandning amalga oshirish mexanizmida Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq

miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar) tomonidan **o'z sof foydasining 50 foizi miqdorida** ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlarni hisoblash, tegishli darajadagi budjetlarga o'tkazish bo'yicha aniq muddatlarni, undirish mexanizmini hamda mas'ul organlarni belgilash yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini 2024-yil dekabrgacha ishlab chiqish belgilanganligi **ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.**

3. Davaktiv agentligida 2025-yil 1-yanvardan boshlab, moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish bo'yicha kollegial asosda **“Xavflarni boshqarish”** qo'mitasi tashkil qilinsin hamda uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, “Xavflarni boshqarish” qo'mitasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

ichki audit xizmatlari tomonidan tizim faoliyati va maqsadli ko'rsatkichlarga (indikatorlarga) erishish bilan bog'liq moliyaviy, operatsion hamda ichki nazoratga oid aniqlangan xavflarning ro'yxati shakllantirilishi va yangilab borilishini ta'minlash;

davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash hamda aniqlangan xavflarni bartaraf etish;

xavflarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha ichki audit xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish;

har chorak yakuni bo'yicha xavflarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish hamda oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan ichki audit xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni atroflicha muhokama qilish;

normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo'llash amaliyotidagi xavflarning yuzaga kelishiga imkon beruvchi ziddiyatlarni bartaraf etish, tegishli normalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

xavflarning oldini olishni nazarda tutadigan istiqbolli yo'nalishlarni belgilash.

4. Davaktiv agentligining idoraviy mansub tuzilmalari rahbarlari bir oy muddatda Farmon talablaridan kelib chiqib, **“Xavflarni boshqarish”** qo'mitasini tashkil etilishini hamda natijasi yuzasidan Davaktiv agentligiga axborot kiritilishini ta'minlasinlar.

5. Ichki audit xizmati bo'limi (Alibekov):

Davaktiv agentligi tizimidagi budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa hamda tashkilotlarda moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarni monitoring qilib borilishini;

bo'limning nazorat tadbirlarining yillik rejasini har yili majburiy tartibda Hisob palatasi bilan belgilangan tartibda kelishilishini;

Hisob palatasi tomonidan aniqlangan risk-tahlillarni “Masofaviy audit” axborot tizimi orqali yuborilganda, **uch kun muddatda**, mazkur risk-tahlillarni qabul qilib olinishini hamda ijroga qaratilishini;

Hisob palatasi tomonidan risk-tahlillarni o'rganish natijalari yuzasidan “Masofaviy audit” axborot tizimiga va o'rganish yakunlari to'g'risida ma'lumotlarni

o‘n kun muddatda, “Davlat auditi” dasturiy kompleksiga yuklash va Hisob palatasiga yuborilishini ta’minlasin.

6. Shartnomaviy-huquqiy munosabatlar va da’vo ishlarini yuritish bo’yicha yuridik boshqarmasi (Gaziyev) bir hafta muddatda, Davaktiv agentligi rahbariyati ishtirokida Farmon mazmun-mohiyatini Davaktiv agentligi markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalariga keng yoritish choralarini ko‘rsin.

7. Davaktiv agentligining markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari Hisob palatasi tomonidan davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasining ijro holati o‘rganilganda tegishli ma’lumotlarni sifatli va o‘z vaqtida taqdim etib borilishini ta’minlasin.

8. Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta’minlash departamenti (Qurbonaliyev):

Davaktiv agentligi tomonidan ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining “Davlat ishtirokidagi korxonalarning sof foydasidan dividend (ajratma) hisoblash va to‘lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasini (ID-81408) qayta ko‘rib chiqib, mazkur loyihada Farmon bilan tasdiqlangan “Davlat budjetining ijrosi ustidan moliyaviy nazoratni yanada kuchaytirish bo’yicha chora-tadbirlar dasturi”ning 21-bandi talablari inobatga olinishini;

bir hafta muddatda, yirik korxonalarni aniqlash bo’yicha tegishli mezonlarni ishlab chiqilishini hamda ustav fondida (ustav kapitalida) Davaktiv agentligi ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yirik korxonalar ro‘yxatini kelishish uchun Davaktiv agentligi direktoriga kiritilishini;

ikki hafta muddatda, ustav fondida (ustav kapitalida) Davaktiv agentligi ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yirik korxonalarning birinchi rahbarlari boshchiligida kollegial asosda, “Xavflarni boshqarish” qo‘mitasi tashkil etish yuzasidan korxonalarga ko‘rsatma xatlari yuborilishini ta’minlasin.

9. Ijro intizomi nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi (Sayfulloyev) ushbu buyruq nusxalarini, Davaktiv agentligining markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari N. Xusanov hamda direktor o‘rinbosari A. Miraliyev zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Ortikov

**Davlat aktivlarini boshqarish agentligida kollegial asosdagi
"Xavflarni boshqarish" qo'mitasi
TARKIBI**

- | | |
|----------------------------|--|
| 1. A.J. Ortikov | - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori,
Qo'mita raisi |
| 2. N.J. Xusanov | - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
direktorining birinchi o'rinbosari,
Qo'mita raisi o'rinbosari |
| 3. A.E. Miraliyev | - Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori
o'rinbosari, Qo'mita raisi o'rinbosari |
| 4. S. Qurbonaliyev | - Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ
munosabatlarni ta'minlash departamenti boshlig'i |
| 5. M. G'afurov | - Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya
va xususiylashtirish jamg'armasini yuritish
boshqarmasi boshlig'i |
| 6. <i>Lavozimiga ko'ra</i> | - Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens
bo'limi boshlig'i |
| 7. T. Alibekov | - Ichki audit xizmati bo'limi boshlig'i, Qo'mita
kotibi |

Izoh: Qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki ushbu vazifani bajarish yuklatilgan xodimlar kiritiladi.